

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI TARKIBIY TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONLARINI JADALLASHTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Mallaboyev Anvarjon Sotvoldiyevich

Andijon mashinasozlik instituti,

“Iqtisodiyot” kafedrası tayanch doktoranti (PhD), katta o‘qituvchi

E-mail: mallaboyev.anvarjon@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotining tarkibiy transformatsiyalashuv jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari, transformatsiyalashuvning ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilingan. Milliy ishlab chiqarish sanoat tarmog‘ini rivojlantirish shart-sharoitlari va imkoniyatlari yuzasidan taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tarkibiy transformatsiyalashuv, sanoatlashuv jarayonlari, urbanizatsiya, ilmiy-texnika siyosati, ishlab chiqarish sanoati.

Аннотация

В статье анализируются особенности трансформационных процессов в Узбекистане, опыт передовых зарубежных стран в трансформации. Представлены предложения и рекомендации относительно условий и возможностей развития национальной сети обрабатывающей промышленности.

Ключевые слова: структурная трансформация, процессы индустриализации, урбанизация, научно-техническая политика, обрабатывающая промышленность.

Abstract

The article analyzes the specific features of transformation processes in Uzbekistan, the experience of advanced foreign countries in transformation. Proposals and recommendations are presented regarding the conditions and opportunities for the development of the national manufacturing industry network.

Key words: structural transformation, industrialization processes, urbanization, scientific and technical policy, manufacturing industry.

KIRISH

Rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyot tajribasi har qanday mamlakatda barqaror iqtisodiy o‘sish va tarkibiy transformatsiyalashuv jarayonlari o‘rtasida uzviy aloqadorlik mavjudligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, keyingi yarim asr mobaynida Sharqiy Osiyo mamlakatlarida kuzatilgan jadal iqtisodiy o‘sish, ushbu iqtisodiyotlardagi muvaffaqiyatli amalga oshirilgan tarkibiy transformatsiyalashuv jarayonlari bilan bog‘liq ekanligi ilgari surilmoqda. Shu jihatdan olib qaralganda, barqaror rivojlanishga erishgan mamlakatlarda tarkibiy transformatsiyalashuv

darajasining yuqori ekanligini, jadal iqtisodiy o'sishga kapital va mehnat resurslari samaradorligi nisbatan yuqori bo'lgan sektorlarga transfer qilish mexanizmlarini takomillashtirish hisobiga erishilganligini aytish mumkin. Shu sababli, hozirgi kunga kelib tarkibiy transformatsiyalashuv iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanishning eng muhim omillaridan biri sifatida qabul qilinmoqda [2].

Sanoat inqilobidan buyon tarkibiy transformatsiyalashuv jarayonlarida sanoat sektori iqtisodiy o'sishga erishish, bandlikni ta'minlash hamda texnologik rivojlanishda "lokomotiv" vazifasini bajarib kelgan. Sanoatlashuv bandlik darajasini oshiradi, aholi turmush farovonligini yaxshilaydi, mavjud resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi, natijada mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tezlashtiradi.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor maqsadlaridan biri sifatida milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish belgilangan. Ushbu yo'nalishda: sanoatning yetakchi tarmoqlari va iqtisodiyotni yanada liberallashtirish hamda transformatsiya jarayonlarini yakunlash, sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish dasturlarini keng joriy qilish, yirik sanoat tarmoqlari va hududiy korxonalar o'rtasida sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va diversifikatsiya qilish, mavjud imkoniyatlarni to'liq ishga solgan holda mahalliy sanoat tarmoqlari eksport salohiyatini yanada rivojlantirish asosiy vazifalar qatorida ko'rsatilgan [1].

Milliy iqtisodiyotda barqaror iqtisodiy o'sishga erishish, aholi turmush farovonligini yaxshilash, bandlik darajasini oshirish kabi vazifalarni amalga oshirish iqtisodiyotdagi tarkibiy transformatsiya va sanoatlashuv jarayonlarini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etishni talab etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tarkibiy transformatsiyalashuv hozirgi kunda turli jadallikda va bosqichlarda jahonning ko'plab hududlarida davom etayotgan dinamik jarayon hisoblanadi. Tarkibiy transformatsiyalashuv jarayonlari to'g'risida iqtisodchi olimlar tomonidan turli xil ilmiy mushohadalar yuritilgan. Tarkibiy transformatsiya haqida so'z borgan dastlabki ilmiy asarlarda tarkibiy transformatsiya iborasi ishlatilmasa-da, hozirgi kundagi ma'nosiga yaqin shaklda transformatsiyalashuvning o'рни va ahamiyati haqida fikrlar bildirilgan.

Mazmun jihatidan tarkibiy transformatsiya tushunchasi dastlab A. Smit (1723–1790-yillar) tomonidan ilgari surilgan. A. Smitning "Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot" nomli fundamental asarida iqtisodiyotda sektorlarning nisbiy ulushi va iqtisodiy rivojlanish bosqichlari o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjudligi ilmiy-nazariy talqin etilgan [3].

Iqtisodiyot sektorlari nisbiy o'zgarishining zamonaviy tahlillari A. Fisher va K. Klark tomonidan 1930-yillarda boshlangan. Ushbu tadqiqotlarda tarkibiy transformatsiyalashuv qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmat ko'rsatish sektorlari

shaklidagi “uch sektor gipotezasi” bilan tushuntiriladi. Tarkibiy transformatsiya tushunchasining mohiyati iqtisodiyotda sektorlar ulushining qaytadan taqsimlanishi bo‘lib, fanga ushbu tushunchani birinchi bor S. Kuznets kiritgan [4].

Barqaror rivojlanishni ta‘minlash maqsadida tarkibiy transformatsiyalashuvga erishish iqtisodiyotdagi kapital va mehnat resurslarini samaradorligi nisbatan yuqori bo‘lgan sektorlarga o‘tkazish mexanizmlari bilan bog‘liqdir. Jahon Bankining 2017-yilgi hisobotida tarkibiy transformatsiyalashuv tushunchasiga mavjud resurslarni nisbatan yuqori iqtisodiy unumdorlikni ta‘minlovchi zamonaviy iqtisodiy faoliyatlarga jadallik bilan o‘tkazishni ta‘minlash faoliyati deb ta‘rif berilgan [5].

METODOLOGIYASI

Maqolada O‘zbekistonda tarkibiy transformatsiyalashuv jarayonlari, ishlab chiqaradigan sanoatni rivojlantirish muammolari tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida nazariy manbalarni o‘rganish, statistik tahlil qilish, taqqoslama tahlil, guruhlash usullardan samarali foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda tarkibiy transformatsiyalashuv jarayonlarining milliy barqaror iqtisodiy o‘sishga ta‘sirini oshirishda agrar sohada olib borilayotgan islohotlar makroiqtisodiy nuqtayi nazardan muhim o‘rin tutadi. Sanoat va qishloq xo‘jaligi sektorlari bir-birini to‘ldiruvchi va o‘zaro ta‘sir ko‘rsatuvchi tarmoqlar hisoblanadi. Barqaror sanoatlashuvga erishish ko‘p jihatdan qishloq xo‘jaligi sektorida amalga oshiriladigan tub iqtisodiy islohotlar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘i sanoatni zarur xomashyo bilan ta‘minlaydi hamda sanoat mahsulotlarini sotish uchun bozor vazifasini bajaradi. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish usullarining rivojlanishi, sohaga yangi texnika va texnologiyalarning joriy etilishi mehnat unumdorligini va qishloq aholisining daromadini oshiradi. Sanoatlashuvning dastlabki bosqichida qishloq xo‘jaligi sektorida kapital jamg‘arilishi sanoat tarmog‘idagi investitsiyalarni moliyalashtirish jihatidan muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Sanoatlashgan mamlakatlar tajribasiga ko‘ra, sanoatlashuvning dastlabki bosqichida qishloq xo‘jaligi sanoat rivojlanishi uchun o‘ziga xos tramplin vazifasini bajargan. Masalan, G‘arbiy Yevropada sanoat inqilobi boshlanishidan oldin qishloq xo‘jaligida uzoq davr mobaynida jadal rivojlanish kuzatilgan. Kanada va Amerikada ham qishloq xo‘jaligining rivojlanishi kapital jamg‘arilishini ta‘minlagan va muvaffaqiyatli sanoatlashuvga erishishda muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Rivojlangan mamlakatlar qishloq xo‘jaligi sektorida muvaffaqiyatli islohotlarni amalga oshirib, agrar sohada mahsulot hajmi va mehnat unumdorligini oshirish, sanoat va qishloq xo‘jaligi integratsiyasini rivojlantirish orqali jadal sanoatlashuvga erishdilar [6].

Qishloq xo‘jaligi sektori makroiqtisodiy nuqtayi nazardan sanoat sektorini ishchi kuchi bilan ta‘minlash jihatidan ham muhim ahamiyatga ega. Qishloq xo‘jaligida zamonaviy texnika va texnologiyalarning qo‘llanilishi tarmoqning bandlikdagi

ulushining kamayishiga olib keladi, ortiqcha ishchi kuchi esa sanoat sektoriga o'tadi. Sanoatlashgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligining jami bandlikdagi ulushi 10 % ga yetmaydi. O'zbekistonda 2023-yil ma'lumotlariga ko'ra, jami ish bilan band aholining 25,1 % i qishloq xo'jaligida band hisoblanadi [13].

Qishloq joylarda aholi sonining jadallik bilan ortib borishi, qishloq xo'jaligiga yangi texnika va texnologiyalarning joriy etilishi qishloq xo'jaligidagi yashirin ishsizlik muammosini yanada kuchaytiradi. Ma'lumki, sanoatda mehnat unumdorligi qishloq xo'jaligiga nisbatan yuqori hisoblanadi. Shu sababli, yuqoridagi muammolarni hal etish o'rta-uzoq muddatda milliy sanoatni, xususan, ishlab chiqarish sanoatining mehnattalab tarmoqlarini rivojlantirish orqali mumkin bo'ladi.

Qishloq xo'jaligidagi ortiqcha ishchi kuchining sanoat sektoriga jalb etilishi mavjud mehnat resurslari potensialidan to'liq va samarali foydalanishni ta'minlaydi. O'zbekistonda ishlab chiqarish sanoatining qiyosiy ustunlikka ega bo'lgan, qishloq xo'jaligi xomashyosini chuqur qayta ishlovchi mehnattalab tarmoqlarning rivojlantirilishi qishloq aholisining daromadini oshirish bilan birga bandlik muammosini hal qilishda ham muhim ahamiyatga ega. Qishloq aholisining daromadining ortishi sanoat mahsulotlari bozorini yanada kengaytiradi.

Urbanizatsiya va sanoatlashuv o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan jarayonlar bo'lib, ularning ta'sirida jamiyatda yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy o'zgarishlar aholi turmush sifatini yaxshilaydi va farovonligini oshiradi. Urbanizatsiya jarayonlarining chuqurlashishi natijasida shaharlar ichida yirik shaharlar soni va ulushi ortib boradi. Sanoat ishlab chiqarishi esa urbanizatsiya jarayonining moddiy asosi bo'lib, uning shakllanishida muhim omil hisoblanadi.

Jahon Banki ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda urbanizatsiya darajasi yuqori daromadli mamlakatlarda 81,6 %, o'rtachadan yuqori daromadli mamlakatlarda 68,0 %, jahon mamlakatlari o'rtacha ko'rsatkichi esa 56,9 % ni tashkil etgan. O'zbekistonda esa urbanizatsiya darajasi 2017-yilda 50,6 %, 2023-yilda 51,0 % ga yetdi. Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqilsa, O'zbekistonda urbanizatsiya darajasi jahon mamlakatlari ko'rsatkichlaridan orqada ekanligini ko'rish mumkin [12].

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil yanvar oyidagi "Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5623-son¹ Farmoni mamlakatda urbanizatsiya jarayonlarining asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi. Farmonning muhim jihatlaridan biri qishloq joylarda yashayotgan aholining shaharlarga ko'chishiga bo'lgan ma'muriy to'siqlarni bartaraf etishga qaratilganligidir.

O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirishni strategik davlat dasturlari asosida olib borish hamda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish zamonaviy infratuzilmaga ega shaharlar sonining ortishiga xizmat qiladi [7]. Bu esa o'z navbatida shaharlarda sanoat tarmog'ini rivojlantirish, qishloq xo'jaligidagi ortiqcha ishchi kuchini yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

¹ <https://lex.uz/docs/-4154818>

joylashtirish orqali ishsizlik darajasini kamaytirish va aholi daromadlarini oshirish imkoniyatlarini yaratadi.

Mamlakatning tabiiy xomashyo va mineral resurs zaxiralari hamda transformatsiyalashuv o'rtasida murakkab va ko'p qirrali munosabatlar mavjud. Bu munosabatlar mamlakatning tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish mexanizmlarining shakllanganligi, resurslar eksportidan olingan daromadni ishlab chiqarish sanoati investitsiyalariga yo'naltirishda samarali qayta taqsimlashni ta'minlovchi institutsional tuzilmalarning mavjudligi, muvaffaqiyatli olib borilgan sanoat siyosati va boshqa omillar bilan bog'liq.

O'zbekistonning tabiiy xomashyo resurslari jihatidan yirik zaxiralarga ega ekanligi tarmoqdan olingan daromadlar yordamida ishlab chiqarish sanoatini kapital mablag'lar bilan ta'minlash, infratuzilmani rivojlantirish, ta'lim tizimining samaradorligini oshirish hamda mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlovchi sanoat tarmoqlarini zarur xomashyo bilan ta'minlash imkoniyatlarini yaratadi.

O'zbekiston iqtisodiyotining tarkibiy transformatsiyalashuv darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan yana biri uning geografik joylashuvi, ya'ni dengiz yo'llariga chiqish imkoniyatlari hamda transport-logistika infratuzilmasining rivojlanganligi hisoblanadi. O'zbekistonda eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirishda transport-logistika infratuzilmasini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, mamlakatning geografik joylashuvi bevosita dengiz yo'llari bilan bog'lanish imkoniyatini bermaydi. Buning uchun kamida ikkita davlat chegarasini kesib o'tish kerak. Bugungi kunda jahon savdosining 80 % dan ortig'i dengizlar orqali amalga oshirilmoqda. Iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasiga ko'ra, dengizga chiqish imkoniyati mavjud bo'lmagan mamlakatlarda tashqi savdodagi qo'shimcha xarajatlar 10 % dan 50 % gacha yuqori ekanligi aniqlangan [8]. Shu sababli, mamlakatda transport marshrutlarini diversifikatsiyalash hamda xalqaro transport-kommunikatsiya tizimlariga integratsiyalashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida mahalliy muhandislik-tadqiqot va ishlanmalar bazasini rivojlantirish hamda ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish chora-tadbirlari sanoat tarmoqlarining texnologik salohiyatini yuksaltirishda dolzarb vazifa hisoblanadi. Barqaror sanoatlashuvni ta'minlashda sanoatni modernizatsiya qilish, mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash asosida tayyor mahsulot ishlab chiqarish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda xavfsiz ekologik texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayonlariga keng joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Barqaror sanoatlashuvga erishishda samarali ilmiy-texnika siyosatini olib borish eng asosiy yo'nalishlardan biridir. Ilmiy-texnika siyosati texnologik infratuzilmani yangilash, ilmiy-texnologik salohiyatni oshirish, milliy texnologiyani ishlab chiqarish, ilg'or texnologiyalarni tanlash va o'zlashtirish yo'nalishidagi maqsad va tamoyillarni o'z ichiga oladi. Milliy sanoatning ilmiy-texnologik asosini yaratish va uni takomillashtirishning asosiy vositasi ta'lim sifatini yaxshilash, ilmiy tadqiqotlar va tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI)ni kengaytirish, davlat-xususiy sektor-universitet hamkorligini oshirishdan iboratdir.

Ishlab chiqarish sanoatida tarkibiy jihatdan yuqori va o'rta yuqori texnologiyali tayyor mahsulot ishlab chiqarish ulushini oshirish hamda raqobatbardosh sanoatni shakllantirishning eng muhim omillaridan biri mamlakatdagi inson kapitalining sifat darajasidir. Yuqori malakali mutaxassislar yetishtirish mamlakat ta'lim tizimining jahon standartlariga muvofiqligi va ta'limga ajratilayotgan mablag'larning samaradorligi bilan bog'liqdir.

O'zbekistonda barqaror sanoatlashuv talablari doirasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda milliy ta'lim tizimini rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi bilan integratsiyalashuvi yo'nalishidagi islohotlarni davom ettirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu bilan birga, ilm talab tarmoqlarda raqobatbardoshlikni oshirish yo'nalishida malakali ishchi kuchi yetishmovchiligining o'rnini qoplash maqsadida xorijda yashayotgan, ayniqsa fan va texnologiya sohasida samarali faoliyat yuritayotgan vatandoshlarimizni jalb etishni rag'batlantirish yuqori malakali mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojni qondirishda muhim rol o'ynaydi.

Xorijdan jalb etilgan yuqori malakali mutaxassislar sanoat tarmoqlarida innovatsion g'oyalarni rivojlantirishga katta hissa qo'shishi mumkin. Aql transferini amalga oshirish va undan samarali foydalanish ushbu yo'nalishdagi institutsional mexanizmlarning takomillashganligi bilan bog'liqdir. Bu borada Janubiy Koreya, Hindiston, Isroil va Xitoy mamlakatlari tajribalaridan keng foydalanish mumkin.

Masalan, Janubiy Koreyada 1970-yillardan boshlab sanoatning ustuvor sohalarida yuqori malakali ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojni qoplash maqsadida xorijdagi vatandoshlarni jalb etish bo'yicha tizimli siyosat olib borilgan. Shu maqsadda "Brain Pool" ("Aql hovuzi") deb nomlangan inventarizatsiya jarayoni tashkil etilib, xorijda yashovchi yuqori malakali ishchi kuchining mutaxassislik sohaları va joylashuvi aks etgan maxsus xarita ishlab chiqilgan. Janubiy Koreya faol qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish tizimi yordamida xorijdagi vatandoshlarini mamlakatga qaytarish bo'yicha jiddiy muvaffaqiyatlarga erishdi.

Yana bir misol sifatida, AQShda tahsil olgan hind mutaxassislari o'z mamlakatlarida telekommunikatsiya tarmog'ini rivojlantirishda katta rol o'ynadi. Hindistonda shu yo'l bilan 400 000 kishilik yangi tarmoq shakllanishiga imkon yaratildi. Xitoyda esa sanoat siyosati doirasida "yuqori texnologiyalar zonasi" deb atalgan biznes-inkubatsiya markazlarida ishlash uchun xorijdan qaytgan vatandoshlarni qo'llab-quvvatlash yuzasidan milliy qonunchilikka o'zgartirishlar kiritilgan. Ushbu islohotlar natijasida chet eldan qaytganlar tomonidan amalga oshirilgan loyihalarning umumiy loyihalardagi ulushi 11 % ga, xorijdan turib olingan patentlar uchun talabnomalar esa 18 % ga oshgan [9][10].

O'zbekistonda mahalliy muhandislik-tadqiqot va ishlanmalar bazasini yaratish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va kengaytirish, sanoat tarmoqlarining texnologik salohiyatini yuksaltirishda Janubiy Koreya tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Janubiy Koreya ilmiy-texnika siyosatining dastlabki bosqichlarida ilm-fan va texnologik infratuzilmani shakllantirish, texnik ta'limni kuchaytirish hamda xorijiy texnologiya importini rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Sanoatlashuvning ilk bosqichlarida rasmiy ITTKI yetarli darajada rivojlanmagan bo'lsa-da, asosan

import qilingan mashina va uskunalarda “teskarisiga muhandislik” faoliyati yo‘lga qo‘yilgan va o‘zlashtirilgan. Bunday tadqiqotlar mahalliy texnologik qobiliyatni shakllantirishda katta ta’sir ko‘rsatgan [11]. Mamlakatimizda ishlab chiqarish sanoatini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlarni taklif etish mumkin:

- strategik tarmoqlarni aniqlash va ularni ustuvor rivojlantirish orqali sanoatning tarkibiy sifat o‘zgarishlarini amalga oshirish.

- mahalliy xomashyoni qayta ishlash orqali tarmoq eksport tarkibini diversifikatsiya qilish, mehnat unumdorligini oshirish va bandlikni ta’minlash.

- yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish uchun qulay investitsion muhit yaratish va transport-logistika infratuzilmasini takomillashtirish.

- Yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni amalga oshirish maqsadida malakali ishchi kuchini tayyorlash yo‘nalishida texnik ta’lim sifatini yaxshilash.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qiladigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining tarkibiy transformatsiyalashuv jarayonlarini jadallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida quyidagi yo‘nalishlarni taklif etish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- agrar islohotlarni davom ettirish va qishloq xo‘jaligi-sanoat integratsiyasini yanada rivojlantirish;

- urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirish va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish;

- mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shimcha qiymatga ega tayyor mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish hamda ushbu jarayonni qo‘llab-quvvatlash yuzasidan mavjud institutsional va moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish;

- sanoatda ilmiy-texnikaviy va tajriba-konstruktorlik ishlari loyihalarini yaratish hamda ishlab chiqarishga joriy etish jarayonlarida davlat-xususiy sektor-universitet hamkorligini kuchaytirish;

- inson kapitaliga investitsiyalar kiritish orqali mahalliy ishchi kuchining intellektual salohiyatini oshirish va shu orqali sanoat tarmog‘ini malakali mehnat resurslari bilan ta’minlashga qaratilgan strategik reja-dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish.

Yuqorida aytib o‘tilgan masalalarni hal etish orqali jadal transformatsiyalashuvni ta’minlash yordamida milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash hamda aholi turmush darajasini yanada yaxshilash mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son¹ Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
2. Kuznets, S. (1973). Modern Economic Growth: Findings and Reflections. The American Economic Review, 63(3), 249-bet.
3. UN (2006). Structural Change and Sectoral Growth. World Economic and Social Survey 2006, Chapter II, 29-bet.
4. UNIDO (2009a). Structural Change and Sectoral Growth in Selected East Asian Countries. Ed. Nobuya Haraguchi, Gorazd Rezonja, *Working Paper*.
5. Silva, E. G. & Teixeira, A. A. C. (2006). Surveying Structural Change: Seminal Contributions and a Bibliometric Account. FEP Working Papers, 232-bet.
6. Hüseyin Olcay. "Gelişen ekonomilerde yapısal dönüşüm: Prematüre sanayisizleşme üzerine ampirik bir inceleme." Yüksek Lisans Tezi, İktisadi Araştırmalar Vakfı İktisadi İşletmesi, İstanbul, 2021, 7-bet.
7. World Bank (2017). Jobs: World Development Report 2017.
8. C. Aydemir & M. Pıçak. Ekonomik gelişme sürecinde tarım-sanayi ilişkilerinin sektörler arası bütünleşmeye etkileri. D.Ü. Ziya Gökalp Eğitim Fakültesi Dergisi, 10, 129–147 (2008).
9. Zokirov S. S. O'zbekiston Respublikasida urbanizatsiya jarayonini faollashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, № 4, iyul–avgust, 2021-yil.
10. Dr. Anıl Çamyamaç. Denize kıyısı olmayan devletlerin denize çıkışlarına ilişkin bazı uç öneri ve projelerin uluslararası hukuk açısından değerlendirilmesi. Dokuz Eylül Üniversitesi Hukuk Fakültesi Dergisi, Cilt: 12, Özel S., 2010, s. 1257–1301 (Basım yılı: 2012).
11. Z. E. Tanyıldız, S. Arslanhan & Y. Kurtsal. Tersine beyin göçü politikalarının sanayi politikalarına entegrasyonu: Ülke örnekleri ve Türkiye için dersler. TEPAV – Türkiye Ekonomi Politikaları Araştırma Vakfı, yanvar, 2011, 2–9-bet.
12. İ. Külünk. Doğu Asya ülkelerinin ekonomik büyüme dinamiklerinin Türkiye ekonomisi ile karşılaştırmalı analizi. Doktora tezi, T.C. Sakarya Üniversitesi, aprel, 2018, 62-bet.
13. World Bank Data. <https://data.worldbank.org>.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi sayti ma'lumotlari. <https://stat.uz>.

¹ <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>